

## **O'quvchilarni ekologik tarbiyalashda "Avesto" ning o'rni**

**Pedagogika –psixologiya va ta'lim menejmenti  
kafedrasi o'qituvchisi L. Berdiyeva**

Mustaqil O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin, demokratik, huquqiy davlat barpo etilyapti. Yurtimizda barcha xalqlar uchun millati, tili va dinidan qattilsh nazar, hayot uchun zaruriy sharoit yaratib berish, kafolaglangan turmush darajasini yaxshilash va erkinliklarini ta'minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi, O'zbekiston-o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini, ya'ni jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lini tanlab olgan davlatdir.

Yakunlangan XX asr fan va texnika yutuqlari asri bo'ldi. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda noqulay ekologik vaziyat qamrovi jihatidan umumbashariy ahamiyatga molik ekologik xavfni yuzaga keltirdi. Ekologik xavfning kelib chiqish sabablari tabiat, jamiyat, insonlar va texnika orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda ekologik xavfga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning asosiy masalasi bo'lib qoldi. Mazkur noqulay ekologik vaziyat inson uchun, muhim bo'lgan omil-uning salomatligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Shu munosabat bilan umumbashariy va mintaqaviy ekologik xavf, uning kelib chiqish sabablari, inson va tabiat, jamiyat va tabiat orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ekologik halokatga yo'l qo'ymaslik hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Yaqin vaqtlargacha bu atama faqat mutaxassislargagina ma'lum edi. Endilikda atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar etkazishi mumkinligi aniq bo'lib qoldi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini echish zarurati tug'ildi. Shu barobarida ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish asosiy ishlardan biri bo'lib qoldi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va maktablar amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi.

O'zbekiston Konstitusiyasining 18- maddasida er va er osti boyliklarini, suv manbalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini qo'riqlash, bu boyliklardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni o'zluksiz ko'paytirib borishni ta'minlash, insonning atrof-muhitni yaxshilash uchun chora va tadbirlar ko'rishi zarurligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilgan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi»ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg'armasining to'zilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolatdir.

Ekologik muammolar yechimini topishning optimal yo'llarini izlash zarurati paydo bo'lmoqda. Bu zarurat uchun pedagogik yo'nalish, muhim ahamiyat kasb etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat huquqlarini hamda qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarni buzmasligi shart va 55-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur" deb ko'rsatilishi barcha fuqarolarga majburiyat yuklab qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida «Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek, shaxslar, xo'jalik boshqaruvi hamda faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak: barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ekologik qonun-qoidalar bilan tanishtirish majburiydir», deyilgan.

Demak, o'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalar shakllanishi kelajak yoshlarida ekologik ong, ekologik madaniyat va ekologik dunyoqarash paydo bo'lishiga imkon yaratadi. O'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishdan maqsad ularni, eng avvalo, o'zi yashayotgan

joydagi tabiiy boyliklarga, o'simlik va □ hayvonot dunyosiga ongli munosabatni uyg'otishdan iborat.

Ekologik tarbiya- o'quvchilarga dastlabgi ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni "O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejası"da o'z ifodasini topgan. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mops bo'lib, taraqqiyotning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir".»<sup>1</sup>.

O'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbat uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayondir.

Nazariy ekologik bilimlar (экологик онг) ҳамда атроф-муҳит ва табиат муҳофазаси йўлида олиб борилаётган фаолият бирлиги экологик маданиятни шакллантиришга хизмат қилади. Экологик онг табиат ва атроф-муҳитнинг мавжуд ҳолати, уларни муҳофаза этиш борасидаги тушунчаларнинг онгдаги ифодаси бўлиб, у мураккаб ижтимоий-психологик ҳодиса сифатида намоён

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср быса\асида: хавфсизликка ташдид, бар=арорлик шартлари ва тара==иёт кафолатлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997.- 137-бет.

бўлади. Экологик фаолият эса экологик билимларга таянилган ҳолда табиат ва атроф-муҳит муҳофазасини таъминлаш борасида амалга оширилаётган хатти-ҳаракатлар мажмуи демакдир.

Экологик маданият ўқувчининг ижтимоий талабларга мувофиқ табиат ва атроф-муҳит муҳофазасини ташкил этиш қобилияти.

Экологик тарбия ижтимоий тарбиянинг яна бир муҳим таркибий қисми бўлиб, уни ташкил этиш жараёнида қуйидаги вазифалар ҳал этилиши зарур:

1. Ўқувчиларнинг таълим жараёнида ўзлаштирган экологик билимларини янада ошириш.

2. Уларнинг табиат ва атроф-муҳит экологияси тўғрисидаги тасаввурини бойитиш.

3. Ўқувчиларда табиат ва атроф-муҳит муҳофазасини таъминлаш ижтимоий зарурият эканлиги тўғрисидаги эътиқодни шакллантириш.

4. Ўқувчиларда экологик фаолият кўникма ва малакаларни тарбиялаш ҳамда уларнинг табиат ва атроф-муҳит муҳофазасини таъминлаш жараёнида фаол иштирок этишларига эришиш.

Оила ва жамиятда ташкил этилаётган экологик тарбиянинг суҳбат, давра суҳбати, экскурсия, баҳс-мунозара, ижодий танловлар, учрашув, ижтимоий-фойдали меҳнат (шанбалик, хашар, кўкаламзорлаштириш) каби шакл ҳамда суҳбат, кузатиш, амалий фаолиятни ташкил этиш, рағбатлантириш ва жазолаш каби методлар ёрдамида ташкил этиш ўқувчиларда экологик маданиятни қарор топишини таъминлайди.

Ўқувчи тарбиясида иштирок этаётган субъектларнинг шахсий намуналари, ўқув манбалари, бадий адабиётлар, оммавий ахборот воситалари (шу жумладан, Интернет) материаллари ва уларнинг ғоялари ўқувчиларда экологик маданиятни шакллантиришнинг муҳим воситалари саналади.

Ekologiya ushunchasini nemis olimi E.Gekkel (1834-1918) tomonidan 1866 yilda birinchi bo'lib, fanga olib kirilgan. XX asrning boshlarida ekologiya fanning

mustaqil sohasi sifatida shakllandi. Ekologiya so'zi yunoncha «oykos» - «uy», «turar joy», «logos»- fan, ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. «Ekologiya» tushunchasi milliy amaliyotga sekinlik bilan kirib keldi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ingliz fiziologi I. Berdonsanderson, amerikalik olimlar S. Forbe va K. Shreter ekologiya to'g'risida yozdilar. AQShda 1913 yilda CH. Adamsning «Hayvonlar ekologiyasini o'rganishga oid qo'llanma», ingliz zoologi CH. Eltonning «Hayvonlar ekologiyasi», sobiq sovet ekologiya maktabining asoschilaridan zoolog olim D. N. Kashkayevning «Hayvonot ekologiyasi asoslari» kitoblari mavjud. Oliy o'quv yurtlarida 1980 yildan boshlab, «Ekologiya huquqi» fani o'tila boshladi. Shaxsning axloqiy rivojlanishida tabiat bilan muloqotda bo'lish katta ahamiyat kasb etadi. Tabiatga mehr qo'yish, uning barcha boyliklarini asrash va muhofaza qilish ekologik tarbiyaga oid tushunchalar shakllanishiga turtki bo'ladi. Ekologik tarbiya – o'quvchining tabiatga bo'lgan ongli munosabatidir. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalar - ana shu ongli munosabat mahsulidir. O'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirish.
2. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalar mazmuni.
3. O'qituvchining o'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish bo'yicha pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozimligi.
4. O'quvchida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning davrlari, ularni o'zlashtirish darajalari hamda qiziquvchanlik qobiliyati.
5. Ekologik ta'lim va tarbiyaning, uzviyligi
6. O'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish omillarining o'zaro aloqadorligi.

O'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi talablar asosida aniqlandi:

- a) o'quvchidarning yosh xususiyatlarini o'rganish;
- b) o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari asosida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish uchun muhit yaratish;

v) fanlararo ekologik tarbiyaga oid materiallardan foydalanish.

Hozirgi kunda insoniyatni xavf ostiga qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o'rtasida katta tashvish uyg'otmoqda. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga asosiy sabab - ekologik bilimlarning yetarli emasligidadir. O'quvchilarga ekologik bilimlarni berishni qachondan boshlash kerak va bunda qanday manbalardan foydalanish zarur degan savol tug'iladi. Biz bunda ko'hna manbalarimizdan biri bo'lgan "Avesto"dagi ekologik fikrlarni o'rganib ularni quyidagicha tahlil etdik.

"Avesto" zardo'shtiylikning muqaddas kitobi bo'lib, u bizning qadimiy tariximizdan darak beradi. "Avesto" haqida Prezidentimiz I.A. Karimov shunday ta'kidlaydi: "Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududiga yaratilgan, "Avesto" deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi " <sup>1</sup>. Darhaqiqat, bu tarixiy yodgorlik o'zbek xalqining buyuk ma'naviy merosi hisoblanadi. "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi va shu bilan birga ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo'yicha ancha mukammal ma'lumotlar beradigan ulkan, eng ko'hna manba hisoblanadi. Ushbu kitobda O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatlari, qo'shiqlari, diniy oyatlari, marosimlari haqida ma'lumotlar berilgan. "Avesto"ning asosiy g'oyasi quyidagicha ifodalanadi: "Ezgu o'y, ezgu so'z va savob ishlar bilan ezgu ishni alqayman. O'zimni bari ezgu o'ylarga, ezgu so'zlar aytishga, yaxshi ishlar amaliga baxshida qilaman.

Avesto O'rta Osiyo xalqlarining axloq-odobi qaror topishi va rivojlanishi tarixini o'rganish uchun bebaho manbadir. U diniy mazmunda bo'lishi bilan bir qatorda falsafa, siyosat, axloq, turmush, adabiyot masalalarini ham o'z ichiga oladi. O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda butun Yaqin va O'rta Sharq xalqlaridagi ilk tabiiy-ilmiy tasavvurlarini o'rganish uchun boy material beradi.

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T.: Sharq 2008. 31- bet

Avesto muayyan tarixiy davrdagi konkret shaxslar ijodining yakunidan iborat bo'lganligi sababli, shubhasiz, ma'naviy madaniyatni tadqiq etish, xususan, asosiy axloqiy g'oyalarni aniqlash uchun anchagina murakkab asardir. Uni bir qator xalqlar yaratgan. Biror ma'lum davrga mansub .... deb aytib bo'lmaydi.

Tadqiqotlarga ko'ra Avesto taxminan meloddan oldingi IX dan IV asrga qadar tuzilgan, uning ayrim qismlari nafaqat san'at balki geografik jihatdan ham bir-biridan farq qiladi. Ular zardo'shtiylik hukmronlik qilgan turli mamlakatlarida yaratilgan.

Bu din urug'chilik tuzumi davrida paydo bo'ldi, keyin qadimiy Sharqda quldorlik davrida rivojlandi va nihoyat, arshaxiylar, sosoniylar zamonida (ilk feodalizm davrida) tubdan o'zgardi. Shu bois Avesto keng yoyilgan mamlakatlardagi mahalliy xususiyatlar unga ta'sir etmay qolmadi.

Bir qarashda Avesto sof diniy kitobdek tuyuladi. Darvoqe, ko'p xorijiy tadqiqotchilar ayniqsa o'tgan asrda yashab o'tganlari xuddi shunday o'ylashgan ham. Ammo bunday emas. Avestoda ikki jihatni: diniy-mifologik va falsafiy jihatlarni bir-biridan farq qilmoq zarur.

Tadqiqotchilar fikricha, «Gata», «Yasva» shuningdek «Yashtalarning» (gimnlar) ayrim qismlari Avestoning eng qadimiy qismlaridir. Shu bois asardagi axloqiy qarashlarni «Gata»ni taxlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiq, chunki unda zardushtiylikning insonga munosabati, mana shu insoniy jamiyatdagi o'rni va roli to'laroq ochiladi.

Avesto ta'limotiga ko'ra ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan abadiy murosasiz, dushmanlik holatida bo'lib keladi. Yaxshilik kuchlariga Axura Mazda, yomonlik kuchlariga Angra Man'yu boshchilik qiladi. Inson hayotini uning baxti yoki baxtsizligini ana shu kurashning natijasi belgilab beradi. Bir qatordan zardushtiylik adabiyotida inson sub'ekt sifatida emas, balki Xudo tasvir ko'rsatadigan ob'ekt sifatida ish tutadi, ya'ni insondan yo'l boshchilar, podshohlar va kohinlarning «o'ta insoniy» obrazlari keltirib chiqariladi. (Bu jihatdan zardushtiylikning nassorolik va yahudiylik bilan g'oyaviy o'xshashligini ko'rish qiyin emas, keyingi bu ikki din ham, insonni Xudo «o'z tani va joniga»

o'xshatib yaratgan va Xudo bilan inson aynan bir xil deydi). Ikkinchi tomondan inson Xudolarning xizmatkorlari, samoviy va dunyoviy hokimlar xohish-irodasini bajo keltiruvchilardir. Shunday bo'lishiga qaramay, zardushtiylik adabiyoti xohish-iroda va tanlash erkinligini inkor etmaydi. Uni faqat insonga nisbatangina emas, balki hatto hayvonot dunyosiga nisbatan ham birinchi o'ringa qo'yadi. «Sen molga tanlab olish, mol boqarga yoki mol boqar bo'lmagan kishiga qaram bo'lishni tanlab olish imkoniyatingni berib qo'yding» deb murojaat qiladi Zarartushtra Axura Mazdaga («Yasna»).

Kishilar o'z amaliy ishlari, ijobiy axloqiy fazilatlari bilan yaxshilikka moyil ekanliklari, ko'rsatishlari va bu bilan yovuz kuchlarga qarshi kurashda yaxshilik ruhiga ko'maklashishlari lozim, aks holda nomunosib hatti-harakat qiluvchi kishiga osongina yoionlik qopqoniga ilinib qolishi mumkin. Zardusht: «yolg'onchilikka ixlos qo'yganlar uchun abadul-abad azob-uqubatlar tayyorlab qo'yilgan», deydi. Shu bois inson hayot maqsadini tanlab, o'z zimmasiga muayyan majburiyat olar ekan, uni ado etish uchun javobgar bo'lishi lozim.

Asarda Axura Mazdaning erdagi ko'makchisi sifatida ish tutuvchi o'troq chorvadorning dunyoqarashi o'z aksini topadi. Taqvodor chorvador «o'z turish-turmushida odil, oqil va hurmatga sazovor bo'lsa», katta podaga ega bo'lishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, shaxsning axloqiy xislatlari birinchi o'ringa qo'yilmoqda, bu xislatlarsiz inson intilayotgan maqsadiga erishishining iloji yo'q. «Kimki yaxshi niyat yo'lidagina chorvador jamoasida bo'lsa», mehnati uchun uni Xudo yarlaqaydi.

O'troq, chorvadorlar nazarida ko'manchilar eng ashaddiy dushmandir, ular odamlarni talaydi, chorvani haydab ketadi, kishilar boshiga kulfat va nadomatlar keltiradi, ular «chorvaga nisbatan va Olloh chorvasining egalari bo'lgan kishilarga nisbatan zo'rlik ishlatmasdan turib kunlarini ko'rolmaydilar». Bu axloqsiz mahluqlar azob-uqubatga loyiq, chunki yaylovlarni er bilan yakson qilishga chaqiradi, qullariga qurol olib yaxshilik homiylariga hamla qiladi, merosga qolgan mol-mulkni talon-taroj qilishga, «qiyqiriqlar bilan chorvani haydab ketishga» urinadi.



Ko'rib turibmizki, qadimiy zamon xalqlarining axloqiy qarashlari «biz» va «ular» tushunchalarini ijtimoiy-ruhiy jihatdan albatta bir-biriga qarama-qarshi qo'yish vaziyatida shakllanadi.

(Biz-yaxshi, ular yovuz kishilar), «CHorvador yaxshi niyat uchun kurashadi, chorvador bo'lmagan kishi bunday niyatdan yiroqdir». (Yasna), Axura Mazdaning ta'lim berishicha o'z baxt saodatini ko'zlashdan ham ko'ra ko'proq ilohiy qudratni mustahkamlashni ko'zda tutib harakat qiladigan odam birinchi navbatda shu dunyoning va samoning qudratli kishilariga xizmat qilish kerak. Barcha diniy rasm-rusumlariga rioya qilish Zardushtning barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarini bajo keltirish har bir kishining muqaddas burchidir. Biroq Zardushtiylik ayni paytda dunyoviy ishlarga faol munosabatda bo'lishiga: uy-joy qurishga, chorva, xotin va bola-chaqaga ega bo'lishga, ekin-tekini va daraxt ekishga, erlarni sug'orishga, mol-xol boqishga va boshqalarga da'vat etadi.

Dunyoda qanday joy eng sevimli joy degan savolga Axura Mazda bunday javob beradi: «Taqvodor kishi o't-olovi va sut-qatig'i va ichida xotini, bolalari bo'lgan uy qurgan joy chindan ham eng yaxshi joydir».

Ko'rib turibmizki, Avestoda mehnat noz-ne'matlar manbai bo'lganligi uchungina emas, balki axloqiy sog'lomlik, ezgulik manbai sifatida ulug'lanadi. «Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a so'radi, u iymonni oziqlantirib turadi». Bu qonunni bajarish 10 ming marta ibodat qilish bilan barobar yuzlab qurbonlik qilishga teng. «Ekin ekish demak erdagi yovuzlikni yo'qotishdir. Chunki don etilganda devlarni ter bosadi, tegirmon paydo bo'lganda devlar gangib qoladilar, uni chiqqanda devlar sarosimaga tusha boshlaydilar, non paydo bo'lgan paytda devlar qo'rqqanidan zo'r berib dod soladilar».

Zardo'shtiylik adabiyotining xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, Avestoda ko'pgina axloqiy tushunchalari insoniy tus berilgan mavhumotli obrazlar shaklida bayon etiladi. Angra Man'yuning atributi bo'lgan, Angra Man'yu tevaragidagi boshqa yozuv iblislar orasida birinchi o'rinda turuvchi Ako Mana alohida mahluq sifatida talqin qilinadi. Yovuz ruhlar-dev, jin, iblis va boshqalar

gunohlar, adashishlar, millatlar va hokazolarning obrazli shaklda berilishidir. Bu hol hayot haqidagi kishilar tasavvurini butun koinotga ko'chirish bilan aloqador bo'lib, kuchlar muttasil ravishda qutblarga ajralib turadi, ya'ni ezgulik tangrilari va ruhlari, yovuzlik tangrilari va ruhlari bilan ziddiyatli munosabatda bo'ladi.

Avestoda Gumata (ezgu-fikr) Gutka (ezgu-so'z) va Gvarshta (ezgu-ish) da ifodalanadi. «Men ezgu-fikr, ezgu-so'z, ezgu-ishga shon-shavkat baxsh» etaman. Men egulikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman. Insonning fikri, so'zi va ishiga bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch «Vohu Mana» (ezgu-fikr) va Akomana (yovuz-fikr) ta'sir ko'rsatadi. Bundan buyon barcha fikrlar, so'zlar va ishlar mazmunida ezgulik va yovuzlik yotadi.

«Yaxshi fikr» deganda, deb yozadi Avestoshunos A. Makavel'skiy, ilohiy qonuniyat ruhidagi yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlik va xavf-hatar ostida qolganda ko'maklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi kishilar baxt-saodati uchun faol kurashishga tayyorgarlik, hamma bilan ahil va totuvlikda, o'z maslakdosh birodarlari bilan do'stlik va hamjihatlikda yashashga intilish ruhidagi pok niyat va fikrlar tushuniladi. Inson o'z fikri, hayolida hasad qilmasligi lozim, ezgu niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi, chunki bunday holatga tushsa, ezgu niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

Fikr, so'z va ishning birligi ibtidoiy insonning ajralmas fazilati edi. Uning ongi, axloqi va o'zgalar xususidagi tasavvurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langan bo'lgan. Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so'zi ham ishi edi. Shaxsiyat ibtidoiy insonga yod bo'lgan. Ijtimoiy va umumiy manfaatlarining uyg'unligi urug'chilik jamiyatining xos belgilaridandir. Jamoaning har qanday, hatto juda ham mushkul topshirig'ini bajarish uning a'zolari uchun muqaddas qonun edi. Ana shularning hammasi kishilarning moddiy turmush ehtiyojlaridan, qudratli va noayon tabiat kuchlari ta'sirotidan kelib chiqqanki, bu kuchlar oldida kishilar hali ojiz edi.

Vaqt o'ta borishi bilan ilgari axloqiy tushunchalar shaxsiy kasb eta boradi. Masalan, ancha keyingi davrdagi zardushtiylikda «ezgu-so'z» deganda ahd-

va'daga rioya qilish, qarzlarni to'lash, o'g'rilik va talonchilik qilmaslik, o'zgalarning molini o'zlashtirib olmaslik, buzuqlikdan o'zini tuta bilish va hokazolar tushunilgan. Shubhasiz, bular urug'chilik tuzumining emirilish davriga xosdir.

Inson nafaqat ezgu kuchlar, balki yovuz kuchlar ta'siriga ham berilib turadi: ezgulik ruhlari to'dasiga yovuzlik ruhlari, lashkari qarama-qarshidir. Zardusht yovuzlik kuchlariga ko'maklashuvchi kishiga g'azab bilan hamla qiladi, chorvachilikning gullab-yashnashiga halal beruvchi yolg'onchilik islohmandlariga qarshi kurashdan shavqatsiz bo'ladi.

«Kimki menga sodiq bo'lsa,-deyiladi «Gata» da eng yaxshi narsaga musharraf bo'ladi, kimki sodiq bo'lmasa, unga eng yomon narsa nasib etadi, mening aql-idrokim va fikrimning ahd-qarori ana shunday.

Kimki, meni Zardushtni qo'llasa, buning evaziga istalgan barcha narsalari bilan birgalikda bir juft sog'in sigir ham oladi».

Zardushtiylik ta'lisotiga ko'ra, 15 yosh balog'at yoshi hisoblangan. Balog'atga etgan yigitni zardusht qonunlariga, falsafa, axloq-odobga o'rgatishgan, Xudojo'y, mehnatsevar, odil, o'y-niyati, so'zi, ishni ezgu bo'lishi va hokazolarga e'tibor berilgan.

Zardushtiylik ta'lim berishicha, burchning eng birinchi da'vatlaridan biri faqat sihat-salomatlik va jismoniy kuch haqidagina emas, balki ma'naviy soflik haqida ham g'amxo'rlik qilishdir. Shuningdek, ayollar sihat-salomatligi haqida, ularning homiladorlik paytidan ayniqsa ko'proq g'amxo'rlik qilish zarur. Dindorlar tozalikka (badan tozaligidan tashqari suv manbalari va hokazolar tozaligiga) rioya qilishi, Avestoda zararli Druj Masuposhsha obrazida tasvirlangan markazlaridan o'zini ehtiyot qilishi lozim.

Mazkur din o'z vaqtida ovqatlanishni qat'iy belgilab qo'yadi. Insonning ma'naviy hayoti Avestoda uning moddiy ta'minlanganligi bilan bevosita aloqador qilib qo'yilgan. «Eb-ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga kuchi bo'lmaydi, er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati etmaydi ...». Och qolish va yaxshi ovqat emaslik kishilarning axloq-odobiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: «Oziq-ovqat

yaxshilanishi bilan xalqning axloq-odobi ham ko'chayadi. Ovqat mo'l-ko'l bo'lsa, ilohiy so'zlar yaxshiroq idrok etiladi».

Zardushtiylik ta'limoti jonzotlarga beshavqat bo'lishni qat'iy man etadi. Hayvonlarni kaltaklash, qiynash, diniy va axloqiy nuqtai-nazaridan katta gunohdir. Kishilar uy hayvonlari jon ko'ydirishiga, ularga o'z vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qo'riqlashga da'vat etadi. «Chorvadorlik to'q bo'lishi uchun, chorvani mo'ttasil parvarish qilmoq lozim».

Avesto paxlaviy tilidagi «Bundixeshn» kitobi bilan tugaydi. Unda odob-axloq muammolari ilohiyot ta'sirida bo'lganligi yaqqol ko'rinadi. Xayrli ishlar uchun kelgusi hayotda taqdirlanishi yoki yovuz hatti-harakatlar uchun jazolanish kutadi kishini. Hozir yomonlik va yaxshilik o'rtasida ikkilanib turgan kishi qiyomat kunida yaxshilik uchun ham, yomonlik uchun ham javob beradi. Bordi-yu, inson hayoti ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ishlar bilan o'tgan bo'lsa, uning iymon-e'tiqodli joni zardushtiylikka ko'ra abadul-abad, rohat-farog'atda o'tadi, bunday kishi tanasi ulkan qiyomat ayyomida joni bilan qo'shilishini kutadi. Mabodo u ana shu uchlikka qarshi yursa, unda gunohkorning joni o'limdan keyin, qiyomat kunida haqqoniy ravishda jazo oladi.

Avesto gunohkorning azob-uqubatda qolgan jonini shu tariqa talqin etadi. Gunohkorning joni: «Sizlar kim, men yorug' jahonda hech qachon ko'rmagan yaramas va manfur kishilarmisizlar?-deb so'raydi».

Yovuz devlar javob qiladi: «Biz devlar emasmiz, sen o'ylagan, gapirgan va qilgan yovuz fikrlar, yovuz so'zlar, yovuz ishlarimiz. Or-nomussiz bo'lgan bizlar sen tufayli yanada ko'proq or-nomussiz bo'ldik, manfur bo'ldik, sen tufayli bizlar tavqi la'nat bobida yanada ko'proq sharmandai sharmisor bo'ldik».

Avestodagi axloqiy qarashlarning qisqacha manzarasi shundan iboratki, u O'rta Osiyo xalqlari tarixining eng qadimiy zamonlardan to Islom davrigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Shuningdek, bu asarni bir qator Sharq mamlakatlarining ham eng qadimiy madaniy yodgorligi deb bilmoq zarur. Binobarin bu xalqlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlardan o'zaro chambarchas aloqada bo'lgan.

“ Barcha yomon o’ylardan, yomon so’zu yomon ishlardan yuz o’giraman”. Bu noyob yodgorlikda o’sha vaqtda yashagan xalqlarning axloq-odobiga, ta’lim-tarbiyasiga, kasb o’rganishiga, mehnatsevarlik va mehmondo’stlikka doir fikrlar berilgan. Shu bilan birga adolat targ’ib etiladi, yaxshi xulq –odobga doir g’oyalar, ekologik (tabiatni e’zozlashga, uni asrab-avaylashga) fikrlar keng targ’ib etilgan. Quyidagicha fikrlar bildirilgan:

“Bolalar yosh paytidayoq daraxt ko’chati o’tkazish, uy-ro’zg’or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug’ullanishlariga o’rgatilishlari shart. Bug’doy o’sтира boshlansa, devlarni qora ter bosadi, sovutilgan bug’doy tayyor bo’lsa, devlar zaiflashib qoladi, un tayyor bo’lgach esa devlar nola-fig’on chekishadi. Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi jamiki narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish jazosiga mahkumdur. Ekin ekish – demak yerdagi yovuzlikni yo’qotishdir, chunki don yetilganda devlarni ter bosadi. Suv yoki (ov) itini o’ldirgan kishi 10000 barsum, 10000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o’simlik bargi berish kerak”.

“Avesto”da uy jonivorlarini ehtiyot qilishga alohida e’tibor berilgan. Yer, suv, zaminni toza tutish, tozalikka rioya qilishga alohida e’tibor berilgan. Unda go’ristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda joylashtirish, uni o’rab qo’yish, murda tekkan libos, yerlarni qatron qildirish xususida foydali maslahatlar bor. Inson yoki hayvon o’ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bo’shatish, yomg’ir suvi bilan yuvish, to’ldirib bo’shatish ta’kidlanadi. Axuramazda deydi: “U shunday yurtidirki, u yerda bandalarim o’zlariga maskan, ibodat uchun otashkadalar, hayvonlarga qo’ralar qurib, oilali, bola-chaqali, kuchli qurolli bo’ladilar. Ana shu taqdirda ularning yurtida hayvonlar ko’payadi. Xayru Baraka oshadi, yaylovlar ko’payadi, oila bunyod bo’ladi, turli-tuman nozu ne’matlar serob bo’ladi”.

19- faslida adolat va sulhu niyat xudosi Xvarna shunday ta’riflanadi: “Ey osmon bexato Xvarna, jahonda tengsizsan, sen davlatu amniyat (tinchlik) homiysi, sen tufayli adolat tirildi. Nozu ne’mat ko’paydi, olamu parrandalar soni oshdi.

Bahorda gulu daraxtlarning yam-yashilligi-yu, go'zalligi sengadir. Kimda kim yomonlikni yod etgay, xirod topmaga-yu, kamolga yetmagay. Sen bor ekansan, zamona badbinlari omonlik topmagay. Sen bor ekansan, zamona badbinlari omonlik topmagay. Sen mag'rur turib, dili nopoku tili badgo'ylarni quolingni ayamaysan." 19- faslda tasvirlangan yerdagi birinchi odam shoh Kayumars (Gavamarta), Jamshid (Yima) lar faqat adolat uchun, yerni gul-gul yashnatish, barcha jonzotlarni osoyishtalikda saqlash uchun kurashadilar:

Qudratli hukmron Yima zamonlarida,

Qattiq sovuq ham, jazirama issig'u ofat bo'lmasdi.

U davrlarda o'lim ham, qarilik ham bo'lmasdi,

Dev yaratgan yomonlik –rashku hasad ham bo'lmasdi.

“Avesto”da ko'plab mifologik syujet va obrazlarda yerda hayotni saqlab qolish uchun intiluvchi kuchlarning: mardlik, jasorat, matonat hamda insonparvarlik kuchlarining razolat va qabohat, zulmat va halokat kuchlari bilan kurashi bilan kurashi ifodalanadi. Anahita, Ardivisura, Mitra, Osha, Jamshid singari ijobiy qahramonlar yerda yaxshilik urug'ini ko'paytirishga, insonlarga halollik, pok niyatlilik, mehribonlik, shirinsuhanlikning barqaror bo'lishini istaydilar. Jumladan, Osha kishilar o'rtasidagi gazandalikni, xiyonatni, buzuqchilikni, qizlarga tajovuz qilishni g'ayri-insoniy xatti-harakatlardan deb hisoblaydi va uni qoralaydi; qanday qilib bo'lmasin bunday badkirdorlikning oldini olishga intiladi. Quyosh xudosi Mirta o'z hamrohi Bertragna bilan yerda hayotni saqlash uchun balo-qazolarni daf etadi:

Biz Mitraga topinamiz,

U so'zida sobitlarni.

Lafzi halol kimsalarni

Falokatdan saqlagaydir.

Halokatdan saqlagaydir

Shafqatsizdir kimda-kim,

Yolg'onchidir, subutsizdir.

Ularni antarib yuborar Mitra.

“Kimki itni urisa, hayoti qiyinchilikda o’tadi. Agar it och bo’lsa, uni ovqatlantirish kerak. It bolasi olti oylik bo’lganda esa unga yetti yashar qizcha ovqat berishi kerak. Bolasi bo’lgan itni urgan kishi og’ir jazoga mahkumdir. Itni urgan va haqorat qilgan kishilar abadiy baxtsizlikka duchor bo’ladi. Itlar eng sadoqatli qo’riqchilardir”. Bundan tashqari yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida ahamiyat berilgan. Shunday ta’kidlanadi: “O’t – o’lanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suvlari ravon bo’lgan zamin eng yaxshi yerdir. Ayol va farzandlari sarson va sargardon yuradigan yer eng yomon zamindir”. Bundan tashqari yerni iflos qilgan va uni saqlash qoidalarini buzgan shaxslar “qirq qamchi urish jazosiga” giriftor qilingan. Inson yashayotgan xonada yuvinish va cho’milish qat’iyan man etilgan.

“Avesto”da berilgan pedagogik fikrlardan bolalar tarbiyasida keng foydalanish mumkin. Ayniqsa, tabiatni asrash, avaylash, hayvonlarga ozor bermaslik, yerni asrab - avaylash umuman ekologik g’oyalardan o’quvchilarni ekologik tarbiyasida muhim o’rin tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O’zbekiston, 1992. 48-bet

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. /Barkamol avlod orzusi/.- T.: O'zbekiston, 1998.-31-33-b.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.- T.: Sharq, 2008. 82-b.
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T.: - Sharq. 2000 y.
5. Zunnunov A. Xayrullayev M. O'rta osiyoda pedagogic fikr taraqqiyotidan manbalar. T.: 1996y. 350-b.
6. Mavlonova R va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
7. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogic fikr tarqqiyotida barkamol inson tarbiyasi.T.: 1998. 288-b.
8. Pedagogika. Pedagogika oily o'quv yurtlari uchun darslik. A. K. Munavvarov tahriri ostida. T.: O'qituvchi. 1996.
9. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. O'quv metodik qo'llanma. T.:O'qituvchi, 45-47-b.
10. [www. Pedagog. Uz](http://www.Pedagog.Uz)
11. [www. Ziyonet.uz](http://www. Ziyonet.uz)
12. [www. Edu.uz](http://www. Edu.uz)